



MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARDA RIVOJLANTIRUVCHI MARKAZLAR ASOSIDA EKALOGIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJ TAJRIBASI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19006661>

Suvanova Sevara Baxodir qizi

Qoʻqon davlat universiteti tayanch doktoranti

ssuvanova466@gmail.com +998933274400

Annotatsiya. *Mazkur maqolada maktabgacha taʼlim tashkilotlarida maktabgacha katta yoshdagi bolalarda rivojlantiruvchi markazlar asosida ekalogik madaniyatini rivojlantirishda xorij tajribasi zaruriyat sifatida yoritilib berilgan.*

Kalit soʻzlar: *Maktabgacha taʼlim, ijtimiy, pedagogika, oʻyin, texnologiya, STEM, atrof-muhit katta yosh, rivojlantiruvchi markazlar, bola, ekalogiya, madaniyat.*

BASIS OF FORMING ECOLOGICAL CULTURE IN PRESCHOOL CHILDREN ON THE BASIS OF DEVELOPMENT CENTERS

Suvanova Sevara Bakhodir qizi

Supporting doctoral student of the Kokand State University

ssuvanova466@gmail.com +998933274400

Annotation. *This article highlights the socio-pedagogical necessity of improving the ecological culture of older preschool children in preschool educational organizations based on development centers.*

Keywords: *Preschool education, social, pedagogy, game, technology, STEM, environment older age, developmental centers, child, ecology, culture.*

ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА НА БАЗЕ ЦЕНТРОВ РАЗВИТИЯ

Суванова Севара Баходир кызы

Аспирант Кокандского государственного университет

ssuvanova466@gmail.com +998933274400

Аннотация: *В статье подчеркивается социально-педагогическая необходимость повышения экологической культуры детей старшего дошкольного возраста в дошкольных образовательных организациях на базе центров развития.*



Ключевые слова: Дошкольное образование, социальный, педагогика, игра, технология, STEM, окружающая среда, старший возраст, центры развития, ребенок, экология, культура.

KIRISH

Bugungi kunda ekologik muammolarning keskinlashib borishi jamiyat oldiga tabiatga ongli va mas'uliyatli munosabatda bo'ladigan avlodni tarbiyalash vazifasini qo'yimoqda. Atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda ekologik muvozanatni saqlab qolish masalalari bugungi kunda ta'lim tizimining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Shu bois ekologik tarbiyani bolalik davridan boshlab shakllantirish zarurati ortib bormoqda. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda ekologik madaniyatni rivojlantirish kelajak avlodning tabiatga nisbatan mas'uliyatli, ongli va ehtiyotkorona munosabatda bo'lishini ta'minlaydi. Maktabgacha katta yoshdagi bolalar tabiat hodisalarini faol kuzatadigan, tabiat jarayonlariga qiziqish bildiradigan hamda yangi bilimlarni tez o'zlashtiradigan davrda bo'ladilar. Shu sababli aynan ushbu yosh bosqichida bolalarda ekologik tushunchalar, tabiatga nisbatan ijobiy munosabat va uni asrash ko'nikmalarini shakllantirish alohida pedagogik ahamiyat kasb etadi. Bunda ta'lim jarayonini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etish, xususan rivojlantiruvchi markazlar faoliyatidan samarali foydalanish muhim omillardan biri hisoblanadi. Rivojlantiruvchi markazlar bolalarning

mustaqil faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularning qiziqishlari va ehtiyojlariga mos ravishda bilim, ko'nikma hamda malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu markazlar orqali bolalar kuzatish, tajriba o'tkazish, o'yin va ijodiy faoliyat jarayonida tabiat bilan bevosita tanishadilar. Natijada ularda ekologik tafakkur, tabiatga nisbatan ehtiyotkorlik, hamda ekologik madaniyatning dastlabki elementlari shakllanadi. Xorijiy mamlakatlar tajribasida maktabgacha ta'lim muassasalarida ekologik tarbiyaga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, Yevropa va Osiyo davlatlarida bolalar uchun ekologik burchaklar, tabiat markazlari hamda kichik tajriba laboratoriyalari tashkil etilib, bolalarning tabiat haqidagi bilimlari asosan amaliy faoliyat orqali boyitib boriladi. Ushbu ilg'or tajribalarni o'rganish va ularni milliy maktabgacha ta'lim tizimi sharoitiga moslashtirish ekologik madaniyatni shakllantirish jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Pedagogik yondashuvlar. Reggio Emilia va Montessori metodikasi ekologik ongini rivojlantirishga katta e'tibor qaratadi. Ular bolalarning qiziqishlari asosida o'rganish muhitini yaratadi. O'yin orqali o'rgatish: "Eco-games", interaktiv teatrlar, tabiatga oid ertaklar orqali ekologik qadriyatlar singdiriladi. Bolalar bilan ekologik muammolar haqida muloqot yuritiladi (masalan, nega



daraxtlar kerak, chiqindilar qayerga ketadi). AQShda ota-onalar ekologik tarbiya jarayoniga faol jalb qilinadi. Bog'chalar ko'pincha mahalliy ekologik tashkilotlar bilan hamkorlikda tabiatga sayohatlar, "clean-up days" (tozalash kunlari), daraxt ekish tadbirlarini tashkil etadi. Bolalar uchun ekologik ilovalar, virtual tabiat sayohatlari, multfilmlar orqali ekologik madaniyat oshiriladi. Masalan, PBS Kids yoki National Geographic Kids ekologik mavzuda interaktiv kontentlar taqdim etadi. Bugungi kunda insoniyat taraqqiyoti bilan bir qatorda ekologik muammolar ham global miqyosda kuchayib bormoqda. Atrof-muhitning ifloslanishi, tabiiy resurslarning kamayishi, biologik xilma-xillikning yo'qolishi kabi muammolar jamiyatda ekologik madaniyatni shakllantirish masalasini dolzarb vazifaga aylantirdi. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, ekologik madaniyatni shakllantirishni eng samarali bosqichi bu — maktabgacha yosh davridir. Palmer AQShning maktabgacha ta'lim tizimidagi ekologik tarbiya tajribasi quyidagilarga asoslanadi:

- Amaliy tajriba va faoliyatlar orqali o'rgatish
- Rivojlantiruvchi markazlardan samarali foydalanish
- Jamoatchilik va ota-onalar bilan hamkorlik
- Innovatsion va kreativ yondashuvlar

AQShda "International Preschool Curriculum" dasturi amalda bo'lib, unda tolerantlik, ochiqlik va liderlik sifatlarini

rivojlantirishga e'tibor qaratilgan. Maktabgacha ta'lim muassasalarida syujetli-rolli o'yinlar, qo'g'irchoq teatri, san'at, pazandalik, qum va suv o'yinlari, ilmiy-matematik markazlar tashkil etilgan. Shuningdek, "North American Association for Environmental Education" nodavlat tashkiloti faoliyat ko'rsatadi va uning asosiy vazifasi maktabgacha ta'lim pedagoglari uchun atrof-muhit ta'limi bo'yicha seminarlar, treninglar va malaka oshirish shakllarini tashkil etishdan iborat.

Angliyada ta'lim-tarbiya jarayoni bir nechta yo'nalishlar bo'yicha olib boriladi. Jumladan, "Tabiat bilan tanishtirish" sohasida bolalar tabiiy fanlar, geografiya va tarix, dizayn va informatika, shuningdek milliy va dunyo madaniyati bilan tanishadilar. Shuningdek, Angliyada maktabgacha yoshdan boshlab axborot texnologiyalari o'rgatiladi. Bolalar fan va texnikaning so'nggi yutuqlaridan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'ladilar, masalan, kompyuterlar, masofadan boshqariladigan o'yinchoqlar va qurilmalar, mikroskoplar va boshqaruv dasturlaridan foydalanishga o'rgatiladi.

Bu tajriba O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimiga quyidagicha integratsiya qilinishi mumkin:

- "Green corner" yoki "Eko-burchak" tashkil etish;
- Montessori yoki Reggio Emilia asosida rivojlantiruvchi markazlar ochish;



• Mahalliy sharoitga moslashtirilgan ekologik o'yinlar va dasturlar ishlab chiqish.

Xorijiy tajribasi shuni ko'rsatadiki, bolalarda ekologik madaniyatni rivojlantirish uchun ularni bevosita tabiiy muhitga yaqinlashtirish, amaliy mashg'ulotlar va eksperimentlar orqali o'rgatish samaralidir. Rivojlantiruvchi markazlar ekologik tarbiyada muhim vosita bo'lib, bu muassasalarda metodik yondashuvlar, tabiiy resurslar va didaktik vositalar uyg'unligida tarbiya jarayoni amalga oshiriladi. O'zbekiston ta'lim tizimida ham bunday markazlarning tashkil etilishi istiqbolli yo'nalishlardan biridir. Ekologik madaniyat tushunchasi pedagogik adabiyotlarda shaxsning tabiatga ongli, mas'uliyatli va ehtiyotkor munosabatini ifodalovchi sifatlar majmui sifatida talqin etiladi. U ekologik bilimlar, ekologik ong, ekologik xulq-atvor hamda ekologik mas'uliyat kabi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik madaniyat asosan tabiatni sevish, tirik mavjudotlarga zarar yetkazmaslik va tozalikni saqlash kabi oddiy, ammo muhim ko'nikmalar orqali namoyon bo'ladi. Xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, ekologik tarbiya jarayonini samarali tashkil etishda an'anaviy o'qitishdan ko'ra faoliyatga asoslangan yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda bolalar ekologik bilimlarni tayyor axborot sifatida emas, balki amaliy faoliyat, o'yin, kuzatish va tajriba orqali egallaydi. Bu yondashuv bolalarning mustaqil fikrlashini va ekologik mas'uliyatini

rivojlantiradi. Maktabgacha 6–7 yoshdagi bolalarda ekologik madaniyatni rivojlantirishda xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish va tahlil qilish maqsad qilib olindi. Tadqiqot davomida xorij tajribasining nazariy asoslari yoritilib, ularni O'zbekiston maktabgacha ta'lim tizimida qo'llash imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. 6–7 yoshdagi maktabgacha bolalarda ekologik madaniyatni rivojlantirishda xorijiy mamlakatlar tajribasini nazariy jihatdan o'rganish va tahlil qilish. Ekologik madaniyat shaxsning tabiatga ongli, mas'uliyatli va ehtiyotkor munosabatini ifodalovchi bilim, ko'nikma va qadriyatlar majmui hisoblanadi. 6–7 yosh davrida bolalarda axloqiy tushunchalar va ijtimoiy xulq-atvor shakllanadi, shu sababli ekologik tarbiya aynan shu bosqichda samaraliroq bo'ladi. Faoliyatga asoslangan ta'lim bolalarning ekologik bilimlarni amaliy tajriba orqali o'zlashtirishiga yordam beradi. Fridrix Frebelning pedagogic tamoyillarida bolalarning imkoniyati faoliyat jarayonida rivojlantirilishi etirof etiladi. Kichik bolajon nafaat yashashga tayyorlanadi, u mukammal yashay boshlaydi, uning hayoti o'zining extiyoji va huquqlarini namoyon etish bilan davom etadi-degan g'oyani ilgari surgan olim o'yin nazariyasini yaratgan. O'yin shaklidagi mashg'ulotlardan mashg'ulotlarning maqsad va vazifalariga muvofiq holda, shuningdek, bolalarning mustaqil faoliyatini tashkil etishda samarali foydalanish mumkin. Agar tarbiyachi mashg'ulot jarayonida muayyan usullar



yordamida ma'lumot bersa, didaktik o'yinlar orqali egallangan bilimlar, jumladan buyumlarning sifati, o'ziga xos xususiyatlari, turlari hamda ularning bir-biridan farqlari yanada mustahkamlanadi. M.Montessori erkin tarbiya berish g'oyasini ilgari suradi – bola tug'ma ehtiyojlarini erkinlik va o'zining hohish irodasini namayon etishi bilan qondiradi, erkin ravishda mashg'ulot tanlaydi. Pedagoglar bolalar uchun qulay va samarali pedagogik muhitni yaratishlari zarur. Ta'lim jarayonida bolalarni majburlashdan ko'ra, ularning ehtiyojlari va qiziqishlarini inobatga olish muhim hisoblanadi. Bolalarning ehtiyojlarini qondirish orqali ularning ta'lim jarayonidagi faolligini oshirish mumkin. Shuningdek, tabiat bilan bevosita muloqotda bo'lish bolalarga turli amaliy tajribalarni bajarish uchun keng imkoniyat yaratadi. Valdorf pedagogikasining asoschisi R.Shtayner insonparvarlik tamoyili hususida shunday deydi:- Bolalarning hayoti qiziqarli bo'lishi ertaklar, qo'shiq, raqs va sahnalashtirilgan namoyishlar qo'l mehnatining turli shakli bilan taminlanadi. Kattalar bolani boshqarmay va bosim o'tkazmay mazmunli o'yinlar uchun sharoit yaratishi, kundalik hayotda ko'tarinki ijobiy hislar, kayfiyatni tashkil etishi lozim. A.S. Makarenko ilk bolalaik davrida o'yin asosiy faoliyat bo'lib, keyinchalik ham bola uchun muhim ehtiyoj bo'lib qolishini asoslaydi va quyidagi g'oyalarni ilgari suradi: - o'yin vaqtida bolaning kuch quvvati oshadi, uning aqliy qobiliyatlari, manaviy ahloqiy

sifatlari, jamoa bilan muomala qilish, o'yin qoidasiga bo'ysinish odatlari qaror topadi. O'yin bolani jismoniy va ruhiy kuchlarini ishga solishga o'rgatadi. Haqiqatdan ham, o'yinlar bolalarning bilim doirasini kengaytiradi va ularning jamoa bo'lib ishlash malakalarini rivojlantiradi. Didaktik o'yinlarni tashkil etishning o'ziga xos qoidalari mavjud bo'lib, ular orqali bolalar bilimlarni izchil tarzda egallaydi hamda axloqiy-ma'naviy fazilatlarini shakllantiradi. O'yin jarayonida bolalar atrof-muhit va tabiatdagi buyumlarni farqlash, ular bilan turli harakatlarni bajarish orqali o'z imkoniyatlarini sinab ko'rish, tajriba o'tkazish va taqqoslash imkoniga ega bo'ladilar. Taniqli rus pedagogi K.D. Ushinskiy fikricha — “bolalarga tabiat va atrof olam haqida xalq o'yinlari o'ynash, ertaklar eshitish, tez aytish va maqollar o'rganish quvonch bag'ishlaydi”. Ular tabiatga oid turli didaktik o'yinlar o'ynash orqali yangi bilimlarni o'zlashtiradi, oddiy mehnat malakalarini egallaydi. Bolalarda milliy va ma'naviy qadriyatlar shakllanadi. B.N. Vodovozova bolaga ilk yoshidan sensor tarbiya berish metodikasi hamda aqliy tarbiya berishning “yaqindan uzoqqa, oddiydan murakkabga, narsa va buyumlar o'rtasidagi aloqadorlik, konkret tushunchadan mavhumgacha” kabi pedagogik tamoyilini asoslaydi E.I. Tixeeva bola tarbiyasi va ta'limini amalga oshirishning pedagogik sharoitlarini ishlab chiqqan, bolaning me'yorda rivojlanishi uchun ilk yoshdan tasavvur olamini kengaytirish zarurligini



asoslagan. Tabiat bilan tanishtirish jarayonida tarbiyachi bolalarda bilim olishga, o'rganishga va mustaqil fikrlashga qiziqish uyg'otishi lozim. Tabiatdagi narsa va hodisalarning mazmuni hamda nomlari bolalar nutqining asosini tashkil qiladi. Ushbu jarayon nutqni rivojlantirish bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular o'zaro uyg'un holda amalga oshirilishi zarur. Rossiyalik olim A.P. Usova bolalarda bilimlar ikki kategoriyada shakllanishini asoslaydi — “birinchi kategoriyada bolalar oilaviy sharoitda, kattalar bilan kundalik muloqotda, o'yin va kuzatish jarayonida bilimlarni o'zlashtiradilar; ikkinchi kategoriyada esa bilim va tajribalar ta'lim jarayonida mashg'ulotlar hamda ta'limiy faoliyat orqali egallanadi”. Mazkur vazifani bajarishda o'quv-tarbiyaviy jarayon katta imkoniyatlarga ega. “Ilk qadam” Davlat o'quv dasturiga ko'ra, bolalar tanishgan har bir narsa va hodisa yuzasidan zarur bilim hamda tushunchalarni egallash bilan birga, ular haqidagi tasavvurlarini og'zaki bayon qila olish ko'nikmalarini ham shakllantirishi lozim. 6–7 yoshli bolalar tabiatdagi hodisalarni o'rganish jarayonida buyum va narsalarning nomi, vazifasi, sifati, xususiyati hamda qismlarini ifodalovchi so'zlarni o'zlashtiradilar. Keyingi bosqichlarda esa ushbu so'zlardan o'z fikrlarini ifodalashda, hikoya qilishda va tarbiyachi savollariga javob berishda foydalanadilar. Fransiyada maktabgacha ta'lim tizimi mamlakatning milliy xususiyatlari va tarixiy an'analarga asoslanib

shakllangan. Polina Kergomar bolalar tarbiyasida “kun tartibi, ovqatlanish, binoning jihozlanishi, kerakli jihozlardan foydalanish muhimligi, ta'lim-tarbiya nutq o'stirish, o'qish, yozish, musiqa, qo'l mehnati, tabiat va atrof olam mashg'ulotlari jarayonida amalga oshiriladi”, — deydi. Tabiat maktabgacha ta'lim mazmunida alohida komponentni tashkil etadi, bu yo'nalishda bolalar egallashi lozim bo'lgan bilim va kompetensiyalar davlat standartlarida alohida ko'rsatilgan. Janubiy Koreyada maktabgacha ta'lim quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi: jismoniy tarbiya, musiqa va raqs darslari, an'analarni o'rganish, jonli tabiat bilan mashg'ulotlar, turli fanlar bo'yicha darslar. Bolalarga dunyodagi har bir joy va narsaning o'ziga xos belgilari borligi tushuntiriladi. Shuningdek, texnika xavfsizligi asoslari ham muhim yo'nalish hisoblanadi. Koreyalik bolalardan zarur vaziyatlarda tez yordamga qo'ng'iroq qilish va yong'in vaqtida qanday harakat qilishni bilish talab qilinadi. Tadqiqotimiz natijalari shuni ko'rsatdiki, bolalarga xavfsizlik va yo'l harakati qoidalarini o'rgatish ham muhim vazifa sifatida qaraladi. Italiyada maktabgacha ta'lim dasturlari tabiat va atrof-muhit, nutqni rivojlantirish, jismoniy rivojlanish, xorijiy tillar, mustaqillik va individuallikni rivojlantirish yo'nalishlarini qamrab oladi. Shvetsiyada esa maktabgacha ta'lim bola tarbiyasining tabiiy bosqichi hisoblanadi va bolaning erishgan yutuqlari qat'iy mezonlar bilan baholanmaydi. J.O. Decroly fikricha,



pedagogik jarayon markazida bola, uning ehtiyojlari va qiziqishlari turadi. Shu bois bolalar atrof olamni mustaqil anglab,

kuzatib va tajriba o'tkazib o'rganishi, tarbiyachi esa fasilitator rolini bajarishi lozim

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. J. Environmental Education in the 21st Century. London: Routledge, 1998.
 2. Vygotsky, L.S. Mind in Society. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.
 3. Palmer, J. Environmental Education in the 21st Century. London: Routledge, 1998.
 4. Bredekamp, S., Copple, C. Developmentally Appropriate Practice in Early Childhood Programs. Washington: NAEYC, 2009.
 5. UNESCO. Education for Sustainable Development in Early Childhood. Paris, 2012.
 6. Velea R., Tamburlini G. Early Child Development in the European Region: needs, trends and policy development. An overview based on five country assessments. Copenhagen, Denmark, 2014.
 7. Fausek Yu.I. Detskiy sad Montessori. M.: Karapuz, 2011.
 8. Shodmonova Sh. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. T.: "Fan va texnologiya", 2008.
 9. Shtayner R. Vospitaniye rebenka s tochki zreniya dukhovnoy nauki. Izd. GA 034. Per. s nem. D. Vinogradova. Elektronnye knigi. GA. M., 2009. www.tdpu.uz
 10. Monastyrniy E.A. Innovatsion klaster // Innovatsii. 2006. № 2.
 11. Volobuyeva L.M., Avilova E.A. Istoriya doshkolnoy pedagogiki: uchebno-metodicheskoye posobiye. M., 2017.
 12. Usova A.P. Rol igry v detskom sadu. Dlya stud. vyssh. ped. ucheb. zavedeniy / T.P. Avdulova. – M.: Akademiya, 2009.
 13. Usova A.P. Obucheniye v detskom sadu. / Pod red. A.V. Zaporoztsa. – 3-izd., ispr. – M.: Prosveshcheniye, 1991.
- www.pedagog.uz
 - www.ziyonet.uz
 - www.edu.uz